

BUYUMLAR TARIXINI BILASIZMI? KICHKINA TUGMANING KATTA TARIXI

*Farg'ona viloyati Quva tuman
kasb-hunar maktabi Tikuvchilik
fanlari o'qituvchisi*

Fazliddinova Saidaxon Baxriddinovna

Annotatsiya: Tugma, dazmol, qaychi, angishvonaning tarixi, tayyorlanishi, qo'llanilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Momomeros, Krit oroli, kostyum, tugma, dazmol, angishvona, igna, asosiy talablar, tuzilishi, xossalari.

Tugmalar kiyimda amaliy va bezaklik vazifasini o'taydi. Momomeros chevarlarimizni ko'z qorachug'iday asrayotgan onalar qiziga aqlini taniganidan boshlab igna ushlashni, tugma qadashni o'rgatishadi. Asta-sekin qo'li o'rganib, ularda mehnat malakasi shakllanadi. Shul sababdan ham zehni o'tkir qizlarimiz tugma, ignaning tarixiga qiziqishi tabiiy holdir. Tugma tarixiga nazar solaylik.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda O'rta dengizning sharqiy Krit orolida yashagan qadimgi odamlarga ham tugma ma'lum bo'lgan ekan. Milloddan avvalgi yunon shaharlarida savlat to'kib turgan muhtasham haykallaridagi kiyim tasvirlarida ham tuga borligi ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Binobarin odamlar qadimda ham tugmadan foydalanishgan.

O'rta asrlarga kelib tugma asosan bezak buyum sifatida ishlatilgan. Zamonlar o'tishi bilan tugmalarning shakllari va tugmalarning shakllari va turlari o'zgarib xilmaxillashib bordi. Bazi mamlakatlarda tugmadan bezak sifatida foydalanib, kiyimga o'ta ko'p tigma qadash rusum bo'lgan.

Tarixiy manbalarda keltirishicha, fransuz qiroli Fransisk o'zining baxmaldan tikilgan kostyumini bezatish uchun maxsus zargarga o'n uch ming olti yuz dona tilla tugmacha buyurtirib, kostyumiga qadattirgan. Uning o'g'li Genrix va Vengriya qiroli Rudolflar tugma bobiga Fransiskdan qolishmaganlar.

XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida O'rta Osiyoda yevropa kiyimlari ta'sirida turli kiyimlar urf bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan texnika taraqqiyoti natijasida tugma tayyorlash sanoatida ham zamonaviy usullari yaratildi.

Kiyim tugmalari mexanik usulda (kesib), list materiallardan shamplab, press-kukunlardan presslanib tayyorlanadi. Original tugmalar bezak shnurlar, tesmalar, gazlamalardan sug'urib olingan iplardan eshib tayyorlanadi. Tugma tayyorlash usuli u qanday materialdan tayyorlanishiga qarab tanlanadi. Mexanik usulda yumaloq zagatovkalar yo'niladi va pardoatlanadi. Shamplash usulida tugmalar list materiallardan

kesib olinadi. Press-kukunlardan tugmalar tayyorlashda plastik kukunlari press qoliplarga solinadi, bu erda yuqori temperatura va bosim ta'sirida kukun eriydi, sovutilgandan keyin qotadi va tugma shakliga kiradi.

Tugmalar tayyorlanish materiali turli- tuman. Bular plastmassalar, yog'och, shisha, metallar, suyak va h.k.

Tugmalar xossalari ular tayyorlanadigan materiallarning xossalariga bo'g'liq bo'ladi.

Aminoplast kukunidan presslab tayyorlanadigan tugmalar pishiq, suv, suyultirilgan kislotalar ta'siriga chidamli, yonmaydi, lekin ishqorlar ta'siriga uncha chidamaydi; ular 180 gradus issiqqa chidaydi.

Akrilit (pleksiglas, organik shisha) tugmalar shaffof, juda pishiq, yorug'lik, suv va sovuq ta'siriga chidamli, har xil ranglarga oson bo'yaladi. Kimyoviy ta'sirlarga va issiqqa uncha chidamli emas.

Polistiroidan va polistrilol sopolimerlaridan tayyorlangan tugmalar kimyoviy ta'sirlarga chidamsiz, ularning issiqbardoshligi mos ravishda 60 va 70 gradus.

Sadaf tugmalar jilvalanib turadi, suv ta'siriga, qizishga, kislota va ishqorlar ta'siriga chidamli.

Shisha tugmalar har xil tusda bo'lishi mumkin. Ular mo'rt bo'ladi.

Shox va tuyoqlardan qilingan tugmalar qaynoq suvda yumshaydi va qiyshayib ketadi, yaxshi silliqlanmaydi, chetlari g'adur- budur bo'lib, ipni uzib yuborishi mumkin.

Yog'och tugmalar (jamshid, qayin, zarang) sinuvchan bo'ladi, suv ta'sirida shishib, shaklini va yaltiroqligini yo'qotadi.

Suyak tugmalar qizishga chidamli, ancha pishiq, lekin vaqt o'tishi bilan sarg'ayib ketadi.

Tugmalarga qo'yiladigan asosiy talablar: pishiqlik, suv ta'siriga chidamlilik, sovunli eritmada qaynatilganda aynimaslik.

Tugmalar 1,5 metr balandlikdan tashlab yuborilganda shikastlanmasligi lozim.

Tugmalar sovunli eritmada qaynatilganda tashqi ko'rinishi, shakli, rangi o'zgarmasligi, darz ketmasligi kerak. Tugmalarning rangi yorug'lik va ob-havo ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

Tugmalarning sifatini aniqlash uchun ular ko'zdan kechirilib ko'riladi va asosiy xossalari sinaladi. Plastmassa tugmalarning pishiqligi sinaladi. Metall, aminoplast, fenoplast, polipropilen, polieffer va poliamid smolaliardan qilingan tugmalarning kimyoviy turg'unligi ularga perxloretlen ta'sir ettirib sinab ko'riladi. Metall tugmalarning korroziyabardoshligi ham tekshiriladi.

Tugmalar har xil alomatlarga ko'ra klassifikatsiyalanadi.

Ishlatilishiga ko'ra tugmalar palto, kostyum, ko'ylak, shim, ich kiyim, forma va bolalar kiyimlari uchun moljallangan xillarga bo'linadi.

Materialiga qarab tugmalarning akrilat, selluloid, metall, shisha, shox yoki suyak, sadaf, yog'och, press-kukundan qilingan va boshqa xillari bo'ladi.

Tashqi ko'rinishiga, ya'ni shakliga ko'ra-dumaloq, sharsimon, oval, yarimsharsimon tugmalar;

sirtining xarakteriga ko'ra-silliq va relefli; rangiga ko'ra-qora, oq, rangli, guldor va toshbaqa rangli, yoqut rangli, qahrabo rangli va boshqa rangli tugmalar bo'ladi.

Kiyimga **qadalish usuliga ko'ra** tugmalar ikki yoki to'rt teshikli va yo'nib ochilgan ko'rinadigan yoki sim quloqli, yarim ko'rinib turadigan o'simtali xillarga bo'linadi.

Tugmalarning o'lchamlarini millimetrda ifodalangan diametri bilan belgilash qabul qilingan.

Paltolik tugmalarning o'lchami 26 mm va undan katta, kostyumlik tugmalarniki 20-25 mm, ko'ylaklarniki 10-19 mm, formalarniki 14, 18, 22, 24 mm bo'ladi.

Erkaklar tugmalari shakli jihatidan ancha oddiy, dumaloq, yassi, biroz chuqurchali yoki qavariq bo'ladi.

Ayollar tugmalari shakli va rangi jihatidan turli-tuman: dumaloq, yassi, oval, shar, gul, yulduzcha, va hakoza shakllarda bo'ladi.

Formalik tigmalarga turli emblemalar tushiriladi.

Igna

Igna bir uchi nihoyatda o'tkir, ikkinchi uchida ip o'tkazishga xizmat qiladigan teshikchasi bor bo'lgan mayda moslama. Ibtidoiy jamoa davrlaridayoq ajdodlarimiz ignadan foydalanishgan ekan. Ular toshdan, keyinchalik bronza, baliq, va boshqa hayvon suyagining yo'g'onroq tomonini teshib, igna yashashgan, bunda ular teshik sifatida kremning toshlaridan foydalanishgan. Qadimgi Misr vayronalaridan xatto toshdan yasalgan ignalar topilgan.

Dastlab arablar Ovroqaga po'lat igna olib borishgan. Ovroqada ilk bor igna XVI asr oxirlarida Germaniyaning Nyurnberg shahrida nemslar tomonidan tayyorlana boshlangan. Rossiyaga igna anashu shahardan keltirilgan. Bora-bora igna yasaydigan ustalar yetishib chiqqan. Igna yasydigan mashinani kim ixtiro qilganini bilasizmi? Leonardo da Vinchi! Angliyada XIX asrda ignani ko'plab ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Uzunligi atigai 9-10 mm, teshigi bor yo'g'I 0,4-0,15 mm keladigan mitti ignalar ishlab chiqarish bo'yicha Hozir Germaniya oldinda.

Hozirgi kunda ignalar uzunligi va yo'g'onligiga qarab 1 dan 12 gacha nomerlari bo'ladi. Toq raqamli ignalar uzunroq bo'ladi. Ignalar silliq uchi o'tkir, ko'zi tekis bo'lib, yuqori navli po'latdan yasaladi. O'lchovlari ularning diametriga bog'liq. Tikilayotgan buyum gazlamaning turiga qarab igna tanlanadi.

Angishvona

Angishvona forscha so'zdan olingan bo'lib, "**angusht**"-barmoq,

"**vona**"saqlovchima'nosini bildiradi. "**vona**"saqlovchima'nosini bildiradi.

1824 yilda Germaniyadagi metall fabrikasida angishvona ishlab chiqaradigan dastgoh ixtiro qilingan.

Angishvona ignani gazlamaga qadash paytida barmoqlarni ignadan asrash uchun xizmat qiladi. Alyuminiy yoki jezdan tayyorlanadi. Raqami 2 dan 12 gacha bo'ladi. Sirtidagi shaxmat tartibida joylashgan ko'zlar ignaning sirpanib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Angishvona tubli va tubsiz bo'ladi. Ayollar va bolalar kiyimini qo'lda tikishda tubli angishvona, ustkiyimlarni tikishda esa tubsizlaridan foydalaniladi.

Qaychilar

Qaychilardan tikuvchilik buyumlarini bichishda detallarini qirqish va boshqa qo'l ishlarida foydalaniladi.

Qaychilar davrlar osha takomillashtirilib, hozirga kelib turli o'lchamlarda (№1 dan №8 gacha kattalashib boradi) va turli materiallardan (po'lat, alyuminiy, plastmassa) tayyorlanadi.

Qaychi taxminan XIV-XV-asrlarda paydo bo'lib u matolarni qirqish maqsadida ikkita pichoqsimon yassi metallarning o'rtasidan plastina bilan birlashtirilgan.

Dazmol

Dazmol taxminan XVII-XVIII-asrlarda paydo bo'lgan. Kiyimlarni tekislab pardozlash uchun dastlab bosim berib dazmollovchi og'ir cho'yan dazmollar ishlab chiqarildi. XIX-asr oxiri va XX- asr boshlarida namlik, issiqlik va bosim berib dazmollaydigan, elektr toki bilan ishlaydigan dazmollar ishlab chiqarildi.

Hozirgi davrda dazmollar takomillashtirilib, turli og'irlikda ishlab chiqarilmoqda. Ularning isitgichi spiralli, isitgich elementli va naychali elektr isitgichli bo'ladi. Dazmollarning deyarli xammasi termoregulyatorli bo'lib, ma'lum haroratgacha isitadi. Ba'zi dazmollar avtomatik tarzda o'chib yonuvchi va suv yoki bug' purgagichli moslamalar bilan ishlab chiqarilmoqda.

Foyalangan adabiyotlar

- 1.T.A.Ochilov, N.G.Abbosova, F.J.Abdulina, Q.I.Abulniyozov "Gazlamashunoslik" T, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003y.
- 2.T.A.Ochilov, B.B.Axmedov, S.SH.Tashpulatov "Tikuvchilik materialshunosligi" T, "SHarq" nashriyoti, 2007-2008y.
- 3.T. A. Ochilov, N. G. Abbosova, F.J.Abdulina, Q.I.Abdulniyozov "Gazlamashunoslik", T, "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat IN, 2008y.
- 4.Gaipova Nasiba Sul-tonmurodovna, Tursunxo'jayeva Mafrat, Abdullayeva Qumrinisa Majidovna, Boboxonova Xamida Shomurodovna, Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari, T. "Voris- nashriyoti" MChJ, 2007yil.

Internet manbalari

1. <http://porrivan.ru><http://www.slingshop.ru>

2. <http://fashion.academic.ru>
3. <http://www.ozon.ru><http://studentochka.ru>
4. <http://www.twirpx.com>